



JADID MARIFATPARVARLARINING GENDIR MADANIYATINI

## SHAKLLANTIRISHGA DOIR PEDAGOGIK QARASHLARI

Ochilova Gulnoza Asrorovna,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada jadidlar oila va jamiyatda o‘qimishli ayolning o‘rni mavqeyi o‘zgacha ekanligini tushuntirishga harakat qilgani, jadidlar asarlarida: “xotinlarni o‘qitmoq va ularning oqillarini jilo bermak va erlari birla yaxshi muomalalar qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoqni yaxshi bilmaklari xususida ta’lim albatta zarurdir” deya qayd etilgani xususida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** gendir madaniyati, ma`rifatparvar, oila, xotin-qizlar, ziyoli, ta`lim, mакtab.

**Аннотация:** В статье джадиды попытались объяснить, что роль образованной женщины в семье и обществе особенная, сказано, что «знания обязательно нужны».

**Ключевые слова:** гендерная культура, просветительница, семья, женщина, интеллигенция, воспитание, школа. Annotation: In the article, the Jadids tried to explain that the role of an educated woman in the family and society is special. It is said that "knowledge is definitely necessary".

**Key words:** gender culture, enlightener, family, women, intellectual, education, school.

Ma`lumki, jadidlar xotin-qizlarning ta’lim olishi masalalari borasida asarlarida qator masalalarni kiritishadi. Xusussan, xotin-qizlarga nisbatan adolatsizlik qilinayotgan bir jamiyatda davrning ilg’or ziyolilaridan Zuhridin Fathiddinzoda, Rauf Muzaffarzoda, Abdulla Avloniy, Tavallo, Cho‘lpon, Ubaydullo, Hamza, Mirmuhsin, Nozimaxonim, Laylixonim kabilar o‘sha davrda gazetalarning vaqtli matbuot sahifalarida o‘zbek xotin-qizlari ma’naviy, ijtimoiy, siyosiy hayotini, kundalik turmushini, ularning ilm-fanga, hunarga, jamiyatdagi tuzumga bo‘lgan munosabatlariga bag’ishlab turkum publitistik maqolalar yozishgan. Jumladan, Fitratning oilada er-xotinning qanday yashamoqligi xususidagi fikr yuritib, u onani oila tarbiyasining asoschisi ekanligini, ayniqsa vijdonli va axloqli ayollar jamiyat poydevori quruvchilari ekanligi, er bilan xotin o‘rtasidagi



munosabatning muhabbat va mehribonlik asosida bo‘lishi kerakligi “erkakning xotiniga nisbatan qanday huquqi bo‘lsa, xotinning ham eriga nisbatan shunday huquqi bor”, – kabi purma`no satrlarda qayd etiladi.

Fayzulla Xo‘jayev ham xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqligini ta’minlashga doir masalalarni ommaga ko`tarib chiqadi. Yozuvchining yozishicha, ayollar faqatgina huquqiy holatda erkaklar bilan teng huquqli deyilsada bu jamiyatda xotin- qizlarning amalda teng ekanligiga hali hanuz yechim berilmaydi. Shuningdek, ayollarning erkaklar bilan amalda teng huquqligiga erishish uchun mehnatni muhofaza qilish, ta’lim olish, fabrika va zavodlarda ayollar malakasini oshirishda bir qator imtiyozlar berilishi, xalq ta’limi bo‘yicha pul ajratmalarini joriy etish, ona va bolalar uylari qurilishi kabi takliflar bilan chiqadi. Bu masalalar tenglikka erishish uchun qizlarning ilm olishi, ma’rifatli bo‘lshiga asos ekanligi aytildi. Ayollar ilm olishda erkaklar bilan barobar bo‘lsin, degan fikrni ham doim bosh masala sifatida qaraldi.

Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi” dramasida esa o‘lka ijtimoiy-iqtisodiy madaniy hayoti berilib, xotin-qizlar masalasiga ham alohida urg’u beriladi. Asarda Davronbek ismli yosh adovakat yevropada o‘qib kelib Turkistonda ishlab Mehrinso ismli bir ayol bilan tanishadi. Ayol erta turmushga chiqib, erining nopok xulqidan arz qiladi. Eng yomoni qimor o‘ynab, har kuni uni haqorat qilishi, bu haqida qozi yoki ellikboshiga arz qilsa, ular eridan pora olib, bu ishni bosdi-bosdi qilishadi. Bundan alamzada xotini Davronbekdan yordam so`raydi. G`azabkor ayol: “Oh zolim madaniyat , bizim turkistonliklarning orasiga qachon kelub tomir yoyasan? Qachon bizim bu jaholat zindonidan xalos qilasan? Bizda uy tarbiyasi boshlanub, xotun-qizlarimiz ilm-u maorif ila nurlanmag’uncha, bizning oramizda shunday ko‘ngilsiz hollatlar davom etsa kerak, Mana bu xotun bechorani eriga berg’on vaqtlarida o‘z xoxishlari bilan, o‘zining rizolig’i bilan, o‘zi ko‘rib xohlag’on eriga bermasdan hayvon kabi kuchlab, qo‘lidan tutib, bir zolimning qo‘liga bergenlar. Bu mushtipar ma’sumaning butun umri azob – mehnatda, qayg’u va kulfatda o‘tub dunyog’ a kelg’oniga-da, ming marotabadan pushaymon yeb g’am zindonda yashog’on. Mana bizning oramizdan munday ko‘ngilsiz holatlarning yo‘q qilmoq uchun butun kuch quvvatimizning xotin-qizlarimizning o‘qutmoq, maorif va madaniyat ila oshno qilmoq yo‘linda sarf qilmog’imiz zarur. Shundagina bizlar



ham boshq qavmlar orasinda yashamog’imiz mumkindir”, –deb ichdan kuyinadi, hayolida tuzum bilan janggga kirishadi.

Yana bir adib Abdulla Avloniy esa har ikki jins vakillari og’ir-u yengil mehnatda teng demaydi, aksincha, har kim o‘z vazifasini puxta bilishi, ado etishi kerakligini aytib gendir masalalarining ikkinchi tomonini qo`llab-quvvatlaydi. Xotin-qizlarni esa hayoli va iffatl bo‘lishga undaydi. Buni Hazrati Alining “Iffat xotunlarning eng ziynatlil libosi” Hazrati Luqmonning “Iffat nomusning eng mukkamal suyanchig’i”, Aflatun “iffatsiz inson yalang’och jasad kabitidur”, Suqrotning “Xotunlarning eng go‘zali hayo va iffat pardasiga o‘ralganlaridur” degan so‘zlarini ifodalaydi.

“Turkiston viloyatining gazetasi”ning sonlarida muallim va shoir Ibrohim Davronning “Haq so‘z” (37-son), “Mirza Toshpo‘lat Alimboy o‘glining“ Zaifalarga erlar barobarida huquq berilsin degan zotlarga ochiq xat” (81-son ), “Xotinlar erkaklar bilan barobar emas” “Bir muslimmonning teng huquqlilik tog’risida yozgani” publitistik maqolalarida Turkiston ijtimoiy-maishiy hayotining asosiy muammolaridan bo‘lgan mahalliy xotin-qizlarning haq-huquqi va maorifi gendir masalasi ko`tarib chiqiladi. Bir qator misollar vositasida o‘zbek xotinqizlarining erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi kerakligi aytildi. Ilm va ma`rifat erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlarga ham nihoyatda zarurligi e`tiborga olinadi. Bu haqda Munavvarqori “men ko‘p vaqtan beri ayollarni ancha tezroq, ozod qilish, maktablarda erkaklar bilan tenglik asosida o‘qitish va ishga jalb etish.–deydi. Yana bir muhim masalalardan biri xotin-qizlarning siyosiy dunyo qarashlarini o`stirish siyosiy tadbirlarda erkaklar bilan teng bo`lishi kerakligi aytildi. Musulmon xotin- qizlarning shahar Dumasiga bo‘ladigan saylovlarda qatnashishi masalasini ko`tarib chiqadi.

Zaki Validiy “Saylovda musulmon xotin- qizlarning ishtiroki” nomli maqolasida Turkiston xotin-qizlarning saylovda ovoz berishlari katta ahamiyatga egaligini aytib, Toshkentdagagi “Shuroyi Islom”ning 1917 yil 19 iyunda bo‘lib o‘tgan yig’ilishida musulmon ayollarinin Duma saylovlarida qatnashishi to‘g’risidagi fikrini olg`a suradi. Ismoilbek Gasprinskiy xam “Doru r-rohat ”asarida ham amirning rafiqasi Xadichabonuning davlatni boshqarish ishlariga aralashishi, ayollar qozi (sudya) kabi turli vazifalarda ishlashi to‘g’risida yozar ekan, bu bilan xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyatida erkaklardan kam ish bajarmasligini



ko‘rsatadi”.–deydi. “Xotun kishining qoziligi mutlaqo durust emas, negakim aqli qoloq bo‘lgan uchun hukumat majlislarida erkaklarga muomila qilmoqni udasidan chiqmasa kerak”, degan javobni oladi. Lekin ba’zi taraqqiyarvar muslimonlar aytadurlarkim, “musulmon xotunlari xususida erkaklarga barobar bo‘lib qozilik mansabiga tayinlansalar, bo‘ladur”.

Adabiyotlar ro`yhati:

1. Авлоний А. Танланган асарлар.–Т.: Маънавият, 1998. –Б. 76. 42-bet
2. Туркистон жадидчилиги ва истиқлол муаммолари (илмий мақолалар тўплами).–Самарканд. 1996.
3. Абдуллаева. Д. Ёшларни оиласвий хаёгга тайерлашда аёлнинг роли //Ўзбекистонда оила, давлат ва жамият қурилишида аёлларнинг роли ва Гендер муаммолари: Илмий-амалий конф. маъruzalari тўплами.–Т.: 1999.
4. М.Кўшжонов. “Кеча ва қундуз” романида образлар тизмаси//Ўзбек тили ва адабиёти,1992.–N 3-4. 49. С.Мамажонов. Чўлпоннинг насрый ижоди//Ўзбек тили ва адабиёти.-1991.
5. Н.Владимирова. Миллий турмушнинг гўзал лавҳалари. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1992.31янв.,
6. Клеопатра Чўлпон талқинида//Ўзбек тили ва адабиёти.1992. –N2.; Чўлпон-щикоянавис//Ўзбек тили ва адабиёти.1992.–N 3-4